

INGLIZ TILINING DUNYO TILI SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

*M. Abdurazakhova*¹

Annotatsiya:

Ijtimoiy tilshunoslikda dunyo tili, rasmiy xalqaro til, geografik jihatdan keng tarqalgan va insonlar bilan muloqot qilishga yordam beradigan til ingliz tilidir. Ushbu maqola hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan va rivojlanib borayotgan xalqaro tillar ro'yxatiga kirgan, ingliz tilining kelib chiqish tarixi, uning grammatikasining shakllanishi to'g'risida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, shevalar, fonematik tizim, grammatik munosabatlar, analitik qurilish, ikkinchi til, rasmiy tillar

doi: <https://doi.org/10.2024/a3w5za31>

Ingliz tili-bugungi kunda 1,5milliard kishi so'zlashadigan va eng ko'p o'qitiladigan tildir. Xo'sh bu tilning paydo bo'lish tarixi qanday? Fransuz, italyan, norveg, nemis, yunon, tillari kabi ingliz tili ham hind-yevropa tillari guruhiga kiradi. Uning kelib chiqish tarixi V asrning o'rtalari, Shimoliy dengiz tomondan kelgan ko'chmanchilar hozirgi Buyuk Britaniya, Kelt qabilalari bosib olgan paytdan boshlanadi. Dastlab Angliyada kelt tilida gaplashishgan, biroq orollarning anglo-sakson istilosidan so'ng zamonaviy ingliz tilida juda kam kelt so'zlari qoldi. Anglo-saksonlar turli shevalarda gapirishgan. Keyinchalik normanlar istilosidan keyin tilda Skandinaviya tilining elementlari paydo bo'ldi. VII asrdan IX asrgacha Britaniyani bosib olgan va mustamlaka qilgan skandinaviyaliklar gapirgan nemis tillari ingliz tilining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Ushbu ta'sir ko'plab grammatik soddalashtirishlarga olib keldi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, hozirgi zamonaviy ingliz tilidan 1500-yildan bugungi kungacha foydalanib kelinmoqda, shuningdek, hozirgi ingliz tili bir nechta shevalarga ega. Buyuk Britaniyada shotland shevasi, shimoliy, janubiy va markaziy shevalar guruhi va shu kabi o'xshash ingliz tilining 24 ta shevasi mavjud. Qadimiy ingliz tili(VII-XI asrlar) anglosaks tili deb atalgan va 4ta shevaga ega bo'lgan: nortumbriy, mersiy, uestek va kent. IX-XI asrlarda uestek shevasi asosida adabiy ingliz tili shakllangan. Bu shevalar turkumi Buyuk Britaniyaning sharqiy qirg'og'iga nemis qabilalari bo'lmish anglo-saksonlar tomonidan keltirilgan. "English" so'zi "Angles" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu xalqning ajdodlar yurti Angeln hozirgi Schleswig-Holstein bo'lgan. Ingliz so'zlarining ko'pchiligi lotin tilidan olingan. VII-IX asrlardagi vikinglarning bosqini hamda XI asrda Angliyaning Normandlar tomonidan bosib olinishi norz, fransuz va ingliz tillarining qorishishiga olib keladi. Shu tufayli ham ingliz tili lug'aviy va imloviy tomonlama roman tillar turkumiga bog'liq. Hozirgi yangi ingliz tili XVI-XVII asrlarga paydo bo'ldi va XVII-XIX asrlarda

¹ *Abdurazakhova Mashhura Utkir kizi, SamDCHTI, ikkinchi bosqich talabasi*

Buyuk Britaniyada ancha rivojlandi. Bu davr grammatikasi ko'plab ko'rinishlarda, o'rganish va o'z-o'zini o'rganishga asoslangan edi. Diagrammalash va grammatik tavsiflar bu davrda rivojlandi. XX asrni zamonaviy ingliz tili asri deb atasak bo'ladi, chunki bu davrda ingliz grammatikasi yanada rivojlandi va bugungi kunda biz bilgan amaliy qoidalarga ega bo'ldi. O'qituvchilar va tilshunoslar ingliz tilining yanada aniq va to'g'ri foydalanilishini ta'minlash uchun ko'lamsiz ishlar olib bordilar

Ingliz tili fonematik tizimida o'ziga xos unlilar va undoshlar mavjud. Boshqa german tillaridan ingliz tili analitik qurilish belgisi bilan farqlanadi. Grammatik munosabatlarni ifodalashda yordamchi so'zlar (artikl, yordamchi fe'llar, predloglar) va so'z tartibi katta ahamiyatga ega. Ingliz tilining tarixi ko'plab madaniyatlar va tillarning ta'siri ostida shakllandi. Masalan, ingliz tili boshqa tillar (lotin, fransuz, italyan, ispan va boshqadan) 70 % ga yaqin so'z qabul qilgan.

Ingliz tilining muhimligi turli jihatlardan kelib chiqadi va u zamonaviy dunyoda ko'plab sohalarda asosiy kommunikatsiya tili sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilining muhimligini quyidagi nuqtalar orqali keltirib o'tish mumkin:

1. Xalqaro kommunikatsiya: Ingliz tili global miqyosda eng ko'p tarqalgan til hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda ingliz tili rasmiy til yoki ikkinchi til sifatida ishlatiladi, bu esa xalqaro munosabatlar, sayohat, va muloqot uchun qulaylik yaratadi.

2. Biznes va iqtisodiyot: Ko'pgina xalqaro kompaniyalar va tashkilotlar ingliz tilida faoliyat yuritadilar. Bu til ish intervyularidan tortib, global biznes bitimlariga qadar keng ko'lamda qo'llaniladi. Ingliz tilini bilish ish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Ta'lim: Ko'plab ilg'or universitetlar va ta'lim muassasalari, jumladan, AQSh va Buyuk Britaniya universitetlari, ingliz tilida ta'lim beradilar. Ingliz tilida o'qish va ta'lim olish orqali talabalar keng bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

4. Madaniyat va fantaziya: Ingliz tili orqali Filmlar, kitoblar, musiqa va boshqa madaniy asarlarni osonlik bilan tushunish va bahramand bo'lish mumkin. Hollywood filmlari va ingliz adabiyoti dunyo miqyosida keng tan olingan.

5. Ilm-fan va texnologiya: Ko'plab ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklar ingliz tilida chop etiladi. Bu, ilmiy aloqa va innovatsiyalarni kuzatish, o'rganish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

6. Internet va axborot texnologiyalari: Internetda ma'lumotlarning ko'p qismi ingliz tilida mavjud. Bu til internet foydalanuvchilari uchun axborot olish va almashish imkoniyatlarini oshiradi.

7. Madaniyatlararo muloqot: Ingliz tili yordamida turli madaniyatlar o'rtasida muloqot qilish mumkin. Bu global hamjihatlikni osonlashtiradi va xalqlar o'rtasidagi tushunishni oshiradi. Ingliz tilining bu jihatlari uning global ahamiyatini va muhimligini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda ingliz tilini bilish ko'p sohalarda muvaffaqiyat kalitidir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Ingliz tili grammatikasining shakllanish tarixi ko'plab ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillarga bog'liqdir. Bu o'zgarishlar tilning zamonaviy qiyofasini belgilaydi va uning fayzli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va bu til hozirda dunyo bo'ylab millionlab odamlar tomonidan so'zlashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. <https://odam.uz/news/tillar-qiroli-bolmish-ingliz-tilining-qiziqarli-tarixi-va-u-haqida-siz-bilmagan-malumotlar>

International Conference

**THE DEVELOPMENT HISTORY AND MODERN SIGNIFICANCE OF INTERCULTURAL
DIALOGUE**

- [2]. *Ingliz tili qanday paydo bo'lgan?*<https://sinaps.uz/bilasizmi/2918/>
- [3]. *http://uztranslations.net.ru/ — UzTranslations — Tarjimonlar va tilshunoslar portali*
- [4]. *http://linguists.narod.ru/ — Linguists — Ingliz tiliga oid lug'atlar, darsliklar va qo'llanmalar*
- [5]. *https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/download/749/688/1405*
- [6]. *Pedagog respublika ilmiy jurnali 5-son /2023-yil / 15-yanvar
www.bestpublication.org466 Ingliz va o'zbek tilidagi shevalar azarovazulxumorxon
Isroiljonovna*